

“IPOTEKA BANK” ATIBNING KOMPLAENS SIYOSATIDAN KO‘CHIRMA

I. KIRISH QOIDALARI

(1) “Ipoteka bank” ATIB hamda OTP Banklar guruhi (“Banklar guruhi” yoki “Guruh”) qonunchilik talablari, xalqaro va Yevropa moliyaviy nazorat organlarining ko‘rsatmalari, shuningdek VMBning 2022-yil 11-avgustdagi 12/2022-sonli ichki himoya liniyalarini tashkil etish bo‘yicha tavsiyasiga (keyingi o‘rinlarda — “VMB tavsiyasi”) muvofiq ravishda Guruh faoliyatining qonunchilik va ichki me‘yoriy hujjatlarga mosligini ta‘minlaydi, shuningdek komplaens risklarini aniqlash va boshqarishni amalga oshiradi.

(2) Komplaens risklari — bu O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari, Bankning ichki hujjatlari, shuningdek Bank faoliyatiga ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan xorijiy davlatlar hujjatlariga rioya etilmasligi natijasida yo‘qotishlarga uchrash va (yoki) rejalashtirilgan daromadlarni ololmaslik ehtimolidir.

(3) Quyidagi hujjatlar Bankning rasmiy veb-saytida e‘lon qilingan bo‘lib, Komplaens siyosatining (shu jumladan mazkur ko‘chirmaning) ajralmas ilovalari hisoblanadi:

- a) Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati;
- b) Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish siyosati;
- c) Iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha komplaens dasturi;
- d) Ichki himoya liniyalari – ESG;
- e) OTP Banklar guruhi sanksiyalar siyosati;
- f) OTP Banklar guruhi – mudofaa sanoatini moliyalashtirish siyosati;
- g) Jinoiy daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish siyosati (AML/CFT talablari bo‘yicha siyosat).

II. UMUMIY QOIDALAR

II.1. Qamrov doirasi

(4) Komplaens funksiyasi “Ipoteka bank” ATIB (keyingi o‘rinlarda — Bank) faoliyatini to‘liq qamrab oladi, shu jumladan uning barcha tarkibiy bo‘linmalari va faoliyat yo‘nalishlarini.

Autsorsing asosida faoliyat yuritayotgan shaxslar, shuningdek ekspertlar yoki maslahatchilar sifatida jalb etilgan jismoniy va yuridik shaxslar ham komplaens talablari va standartlariga rioya etishlari shart.

II.2. Komplaens funksiyasining ichki himoya liniyalari tizimidagi o'рни

(5) Yevropa moliyaviy nazorat organlarining ko'rsatmalari, shuningdek xalqaro va milliy moliyaviy regulyatorlar tavsiyalariga muvofiq, Vengriya Milliy bankining tavsiyalari moliyaviy xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarda ichki himoya liniyalarini tashkil etishda rioya etilishi lozim bo'lgan asosiy tamoyillar va talablarni belgilaydi hamda tashkilot faoliyatida quyidagilarni ta'minlashga qaratilgan:

- a) uning faoliyatini qonunchilik va ichki me'yoriy hujjatlarga muvofiq holda ehtiyotkor (prudensial), ishonchli va samarali tarzda amalga oshirish;
- b) tashkilotning aktivlarini, uning aksiyadorlari va mijozlari manfaatlarini, shuningdek ijtimoiy maqsadlarini himoya qilish;
- c) uning uzluksiz va samarali faoliyat yuritishini hamda unga nisbatan ishonchni saqlab qolish.

(6) Tashkilotning ichki himoya liniyalari mas'uliyatli ichki boshqaruv tizimi hamda ikkinchi va uchinchi himoya liniyalariga kiruvchi ichki nazorat funksiyalaridan iborat bo'lib, ular biznes jarayonlariga integratsiyalashgan nazoratlarni (birinchi himoya liniyasi) to'ldiradi.

(7) VMB tavsiyasiga muvofiq, ichki nazorat funksiyalariga risklarni boshqarish (risk control) funksiyasi, komplaens funksiyasi hamda ichki audit funksiyasi kiradi.

(8) Komplaens funksiyasi Bankning uzoq muddatli prudensial va etik faoliyatini ta'minlash uchun qonuniy va etik korporativ madaniyatni yaratish maqsadida faoliyat yuritadi.

(9) Komplaens funksiyasini amalga oshirish jarayonida Bank quyidagi tamoyillarga amal qiladi:

- a) mustaqillik;
- b) halollik (integritet);
- c) aralashuvsiz faoliyat yuritish;
- d) xolislik;
- e) oldini oluvchi va proaktiv yondashuv;
- f) riskka asoslangan yondashuv (riskka asoslangan komplaensni ta'minlash talabi);
- g) mutanosiblik;
- h) yuqori darajadagi kasbiy e'tibor va malaka;
- i) individual va banklar guruhi darajasida qamrov;

j) samaradorlik va komplaens xarajatlarini maqbullashtirish.

III. MAXSUS QOIDALAR

III.1. Komplaensning asosiy yo'nalishlari

III.1.1. Halollik

(10) Bank manfaatlar to'qnashuvi va etika masalalari bo'yicha qoidalarni ishlab chiqadi va joriy etadi hamda ushbu qoidalar buzilgan taqdirda barcha rahbarlar va nazorat funksiyalaridan qat'iy choralar ko'rishni talab qiladi.

(11) Bank o'z xodimlari va boshqaruv organlari a'zolarining shaxsiy manfaatlari Bank va uning mijozlari manfaatlari hamda majburiyatlariga zid kelmasligini ta'minlashdan manfaatdor hamda bunga qonunchilik asosida majburdir.

Shu bilan birga, Bank o'z faoliyati bilan bog'liq manfaatlar to'qnashuvini aniqlaydi, oldini oladi va boshqaradi, shuningdek yetkazib beruvchilarning komplaensga muvofiqligini baholashni tartibga soladi va ta'minlaydi.

(12) Bank o'z qadriyatlarini va mijozlar manfaatlarini himoya qilish maqsadida axloqiy biznes yuritish talablari va standartlarini belgilaydi.

Bank Guruhining o'ziga xos xususiyatlari va moliyaviy vositachilik tizimidagi ro'lini inobatga olgan holda risklarni kamaytirishga qaratilgan axloqiy standartlar hamda ichki kasbiy standartlarni ishlab chiqadi. Ushbu standartlar Etika kodeksi va Hamkorlar uchun etika kodeksida umumlashtirilgan va e'lon qilingan.

(13) Bank korrupsiyaga qarshi kurashishga sodiq bo'lib, poraxo'rlikning barcha shakllariga hamda noqonuniy ustunliklarga erishishga nisbatan murosasizlik siyosatini e'lon qiladi.

Guruh darajasidagi Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatining maqsadi — Guruhning korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyati tamoyillarini belgilash, korrupsiya riskiga eng ko'p moyil bo'lgan sohalarni aniqlash, shuningdek Banklar guruhining korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini va tegishli xodimlarning faoliyatini tartibga soluvchi ichki me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish uchun asosiy hujjat bo'lib xizmat qilishdir.

(14) Bankda axloqiy me'yorlar va komplaens talablariga oid qoidabuzarliklar haqida xabar berish uchun ishonch telefoni (whistleblowing tizimi) joriy etilgan.

III.1.2. Mijozlarga adolatli munosabat, iste'molchilarni himoya qilish

(15) Bank iste'molchilar manfaatlarini ta'minlashga sodiqdir. Shu munosabat bilan u iste'molchilarni himoya qilish tamoyillariga amal qiladi hamda mijozlarning xulq-atvori va ehtiyojlaridagi o'zgarishlarni inobatga oladi.

III.1.3. Korporativ boshqaruv

(16) Barqaror rivojlanish (ESG) mezonlariga muvofiq, Bank o'z faoliyatini atrof-muhitga ta'siri (E), ijtimoiy mas'uliyat (S) hamda korporativ boshqaruv (G) jihatlaridan baholaydi va tegishli qonunchilik talablariga muvofiqligini ta'minlaydi.

(17) Mas'uliyatli korporativ boshqaruv tamoyillariga muvofiq, Bosh bank tomonidan joriy etilgan qoidalar uning faoliyatini ochiq aksiyadorlik jamiyati sifatida xalqaro e'tirof etilgan korporativ boshqaruv standartlariga mos ravishda tashkil etilishini, shuningdek boshqaruv va operatsion faoliyatga oid ma'lumotlarning oshkoraligini va tekshiriluvchanligini ta'minlaydi.

(18) Bank o'z faoliyatida Bosh bank aksiyadorlari, mijozlar va biznes hamkorlar manfaatlarini inobatga oladi.

(19) Bank mahsulotlarni ishlab chiqishda va xizmatlardan foydalanish imkoniyatini taqdim etishda axloqiy tamoyillar hamda iste'molchilarni himoya qilish standartlariga rioya etadi, bunda taqdim etilayotgan xizmatlarning zamonaviy, yuqori sifatli va adolatli bo'lishi hamda mijozlar ehtiyojlariga mos kelishi ta'minlanadi.

III.1.4. Xalqaro soliq kelishuvlariga rioya etish

(20) Bank mijozlarni identifikatsiya qilish va hisobot berish bo'yicha xalqaro soliq kelishuvlarida (jumladan, AQSh uchun FATCA) hamda amaldagi mahalliy qonunchilikda belgilangan talablarning to'liq bajarilishini ta'minlashdan manfaatdor va bunga qonunchilik asosida majburdir.

III.1.5. Xalqaro sanksiyalar talablariga rioya etish va sezgir operatsiyalar bilan bog'liq risklarni boshqarish

(21) Bank munosabatlarni o'rnatish va davom ettirishda, shuningdek biznes qarorlarini qabul qilishda xalqaro tashkilotlar va alohida davlatlar tomonidan joriy etilgan iqtisodiy, moliyaviy va savdo sanksiyalari hamda embargolar talablarini inobatga oladi, xususan BMT Xavfsizlik Kengashi, AQSh hukumati, Buyuk Britaniyaning vakolatli organlari va Yevropa Ittifoqi tomonidan joriy etilgan talablarni.

Bank o'z rasmiy veb-saytida xalqaro sanksiyalarni qo'llashning umumiy tamoyillarini belgilovchi Banklar guruhi darajasidagi Sanksiyalar siyosatini, shuningdek mudofaa sanoatini moliyalashtirish bo'yicha siyosatni e'lon qiladi.

(22) Bank o'zining bozor mavqeini saqlash, xalqaro hamkorlikni qo'llab-quvvatlash va qonunchilik talablariga rioya etish maqsadida ichki hujjatlari hamda biznes jarayonlarini sanksiyalar bilan bog'liq majburiyatlarga to'liq rioya etilishini va Banklar guruhi obro'sini himoya qilishni ta'minlaydigan tarzda shakllantiradi. Shu maqsadda Banklar guruhida yagona qoidalar qo'llaniladi.

(23) Bank o'z biznes siyosatini amalga oshirishda Banklar guruhi biznes aloqalariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan sezgir operatsiyalardan qochadi hamda shu munosabat bilan, jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda, quyidagi yo'nalishlarga oid operatsiyalarni tekshiradi: mudofaa mahsulotlari va xizmatlari ishlab chiqarish va savdosi, yadro energetikasi, kosmik sanoat, ikki maqsadli tovarlar va texnologiyalar, ko'mir, xom neft va tabiiy gazni qidirish, qazib olish va ulgurji savdosi, neft mahsulotlari ishlab chiqarish va ulgurji savdosi, kriptovalyutalar hamda dengiz transporti.

III.1.6. Pul yuvish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash

(24) Bank va OTP Banklar guruhining pul mablag'larini legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish faoliyati jinoiy daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishning oldini olish va unga qarshi samarali kurashishga qaratilgan.

(25) Bank milliy AML/CFT qonunchiligi va nazorat organlari talablariga rioya etishni ta'minlash maqsadida ichki siyosatlarni ishlab chiqadi, shuningdek samarali jarayonlar va tartib-taomillarni joriy etadi hamda qo'llab-quvvatlaydi.

(26) Pul mablag'larini legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirish risklarini aniqlash, tahlil qilish, baholash va boshqarish maqsadida Banklar guruhi AML/CFT bo'yicha guruh darajasidagi risklarni baholashni amalga oshiradi va uni kamida yiliga bir marta qayta ko'rib chiqadi.

(27) Banklar guruhi mijozlarni risk toifalariga ajratadi va har bir toifaga mos ravishda mijozlarni tegishli tekshiruv choralari qo'llaydi.

Mijozlarni o'rganish jarayonida "Mijozni bilish" (KYC) tamoyili qo'llanilib, mijoz profili shakllantiriladi, ushbu profilga mos kelmaydigan shubhali operatsiyalar aniqlanadi va zarur hollarda vakolatli moliyaviy razvedka organiga (FIU) xabar beriladi.

III.1.7. Korrespondent munosabatlar bo'yicha komplaens

(28) Tegishli tekshiruv (due diligence) jarayonining bir qismi sifatida Bank xorijiy davlatda tashkil etilgan xizmat ko'rsatuvchi bilan korrespondent munosabatlarni

o'rnatishdan oldin hamda ushbu munosabatlar davomida mazkur xizmat ko'rsatuvchini har tomonlama o'rganadi.

Mazkur o'rganish uning pul mablag'larini legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi tizimlari samaradorligini baholash, shuningdek zarur hollarda xizmat ko'rsatuvchiga Bank to'g'risida tegishli ma'lumotlarni taqdim etish maqsadida amalga oshiriladi.

III.2. Umumiy tamoyillar va talablar

III.2.1. Komplaens uchun javobgarlik

(29) Amaldagi qonunchilik hujjatlari hamda Bankning ichki me'yoriy hujjatlariga muvofiq, Bankning barcha xodimlari komplaens talablari va qoidalariga rioya etish uchun umumiy javobgarlikni o'z zimmlariga oladilar.

Barcha xodimlar komplaens talablarini ta'minlash, ularning buzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan holatlar haqida xabar berish hamda bunday holatlarni bartaraf etishda ishtirok etishga majburdirlar.

III.2.2. Tashqi maslahatchilar va ekspertlarni jalb etish shartlari

(30) Mazkur Siyosatda belgilangan standartlarga rioya etilishini ta'minlash maqsadida outsorsing asosida xizmat ko'rsatuvchi shaxslar, shuningdek Bank nomidan faoliyat yurituvchi tashqi ekspertlar va maslahatchilar Komplaens siyosatidan tegishli ko'chirma bilan tanishganliklarini va uni tushunganliklarini tasdiqlashlari hamda undagi talablar bilan bog'liq majburiyatlarni o'z zimmlariga olishlari shart.